

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI

Shukurov Rustam Ergash o'g'li

Jizzax Sambhram Universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi, uning asosiy omillari, samarali boshqarish mexanizmlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Oziq-ovqat sanoatida raqamli transformatsiya, texnologik modernizatsiya va resurs tejamkorligi masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda davlat siyosati, kadrlar salohiyati va ekologik barqarorlikning ahamiyatiga urg'u berilgan. Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ishlab chiqarish salohiyati, oziq-ovqat sanoati, boshqaruv mexanizmi, innovatsiya, raqamli transformatsiya, texnologik modernizatsiya, resurs tejamkorligi, kadrlar salohiyati, ekologik barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi, strategik boshqaruv.

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические основы управления производственным потенциалом на предприятиях пищевой промышленности. Рассмотрены понятие производственного потенциала, его основные факторы, механизмы эффективного управления и пути внедрения инновационных технологий. Проанализированы вопросы цифровой трансформации, технологической модернизации и ресурсосбережения в пищевой промышленности. Также подчеркивается важность государственной политики, кадрового потенциала и экологической устойчивости в наращивании производственного потенциала. Разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию стратегий эффективного управления производственным потенциалом в пищевой промышленности. Ключевые слова: производственный потенциал, пищевая промышленность, механизм управления, инновации, цифровая трансформация, технологическая модернизация, ресурсосбережение, кадровый потенциал, экологическая устойчивость, безопасность пищевых продуктов, стратегическое управление.

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of the management of production potential at enterprises of the food industry. The concept of production potential, its main factors, effective management mechanisms and ways to introduce innovative technologies are considered. Issues of digital transformation, technological modernization and resource economy have been analyzed in the food industry. There

is also an emphasis on the importance of Public Policy, human resources capacity and environmental sustainability in increasing production capacity. Scientific and practical recommendations have been developed to improve strategies for effective management of production potential in the food industry.

Keywords: production potential, food industry, management mechanism, innovation, digital transformation, technological modernization, resource economy, personnel potential, environmental sustainability, food security, strategic management.

KIRISH

Oziq-ovqat sanoati jahon iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u jahon bo'ylab aholi uchun zarur bo'lgan asosiy mahsulotlarni yetkazib berish bilan bog'liq. Demografik o'sish, urbanizatsiya va aholi turmush tarzidagi o'zgarishlar oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni oshib borishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulot sifatini ta'minlash va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish kabi masalalar ham sanoat rivojlanishining asosiy muammolaridan biriga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha bir qator muhim hujjatlar qabul qilingan. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.09.2020 yildagi "Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4821-son qarorida – ushbu hujjatda meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro sifat standartlari asosida qayta ishlash hajmlarini oshirish, ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardosh bo'lgan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etish hamda aholini sifatli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash bo'yicha vazifalar belgilab berilgan.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2024 yildagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-36-son farmonida – mazkur farmonida keyingi besh yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish, mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangi loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish, bozorda raqobatbardosh mahsulotlar turini yanada kengaytirish, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hisobiga yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravarga va eksport ko'rsatkichlarini 2 baravarga oshirish qabul qilingan.[2]

Zamonaviy oziq-ovqat sanoati korxonalari raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun innovatsion texnologiyalar va samarali boshqaruv modellarini joriy etishlari talab qilinadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish jarayonlari va sun'iy intellektga asoslangan tahlil usullari sohani tubdan o'zgartirmoqda. Yangi bozorlar va global ta'minot zanjirlari yaratilishi korxonalar

uchun yangi imkoniyatlarni ochib berish bilan birga, ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarishning dolzarbligini oshirmoqda.

Oziq-ovqat sanoatida resurslardan samarali foydalanish masalalari ham dolzarb hisoblanadi. Tabiiy resurslar, xomashyo va ishchi kuchi yetkazib berishdagi cheklovlar korxonalarni qayta tiklanuvchi resurslardan foydalanish va energiya samaradorligini oshirishga undamoqda. Shuningdek, atrof-muhit muhofazasiga yo'naltirilgan yondashuvlar, "yashil" texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish nafaqat texnologik modernizatsiya va avtomatizatsiya jarayonlariga bog'liq, balki korporativ strategiyalar, ta'minot zanjirlarini to'g'ri tashkil etish va inson resurslarini samarali boshqarish bilan ham uzviy bog'liqdir. Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini yuqori darajada saqlab qolish va bozorda muvaffaqiyatga erishish uchun, korxonalar raqamli boshqaruv tizimlari, resurs tejamkor texnologiyalar va ekologik barqaror ishlab chiqarish modellarini joriy etishi zarur.

Shuningdek, oziq-ovqat sanoatida mahalliy va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi ham ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tarmoqdagi klasterlashuv, innovatsiya va texnologiyalarni transfer qilish jarayonlari sanoatning jadal rivojlanishiga xizmat qiladi. Binobarin, oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish nafaqat korxonalar uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo'lgan talabni qondirish davlatimiz uchun muhim masala va aholi farovonligining asosi hisoblanadi.

Aholining oziq-ovqat sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirilish darajasini oshirish aholi turmush farovonligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari bozorining holati, uning rivojlanishi bir tomondan, iqtisodiyot barqarorligining ko'rsatkichi sifatida ifodalanadi. Boshqa tomondan esa ma'lum bir darajada davlat ijtimoiy siyosatining natijalarini namoyon etadi. Shunday ekan, iste'mol mahsulotlari bozorini, shuningdek ichki iste'mol bozorini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirishni va uning rivojlanishini belgilash milliy iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning nazariy asoslari bo'yicha iqtisodchi olimlarning quyidagi tadqiqotlari mavjud:

M.A. Karimovning "Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqarish mexanizmiga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlari" nomli maqolasida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruv mexanizmiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tahlil qiladi.[3] Muallif tashqi muhit omillari sifatida siyosat, innovatsiya,

resurs, ekologiya, ijtimoiy-demografik holat, bozor va madaniyatni ko'rsatadi. Ichki muhit omillari esa tashkiliy tizim, marketing, kadrlar, iqtisodiy holat, ishlab chiqarish jarayoni, texnika va texnologiya, rejalashtirish va prognozlash, ijtimoiy muhitni o'z ichiga oladi. Muallifning fikricha, ushbu omillarning to'g'ri boshqarilishi korxonalarning samarali faoliyatini ta'minlaydi.

M.Sh. Mamatqulov tomonidan "Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari" nomli tadqiqotida, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda iqtisodiy munosabatlarni samarali shakllantirish, ularning faoliyatini tashkil etish va iqtisodiy xususiyatlarini ochib berish masalalarini o'rganadi.[4] Muallif oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi.

M.A. Karimov esa o'zining "Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini mazmuni va mohiyati" nomli maqolasida, oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qiladi.[5] Muallifning fikricha, ushbu mexanizmlarning samarali ishlashi korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Filipp Kotler ta'biri bilan aytganda, «Iste'mol bozorida alohida shaxs va xo'jaliklar mahsulot va xizmatlarni shaxsiy iste'mol uchun sotib oladilar».[6] «Iste'mol bozorlari shaxsiy iste'mol uchun mahsulotlar va xizmatlar sotib oladigan jismoniy shaxslar va uy xo'jaliklaridir». [7]

Odatda, oziq-ovqat mahsulotlari bozori bir qancha belgilariga qarab turkumlanadi va o'rganiladi. «Iqtisodchi olimlar mahsulotlarni iste'mol qilish davriyligiga qarab 3 guruhga ajratadilar: uzoq muddatli iste'mol mahsulotlari; qisqa muddatli iste'mol mahsulotlari; xizmat turlari». [8]

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan savdo qilish xususiyatiga ko'ra ularni quyidagicha ajratish mumkin: kundalik iste'mol mahsulotlari; dastlabki tanlov asosida olingan mahsulotlar; alohida talabga ega bo'lgan mahsulotlar; passiv talabdagi mahsulotlar.

L.A.Aliyeva va T.Svetlorusovalar oziq-ovqat mahsulotlari bozorini «Qishloq xo'jaligi, qayta ishlash va oziq-ovqat iste'molchilari o'rtasidagi vositachi» sifatida ta'riflaydi. [9]

P.T.Burdukov esa oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga majmuaviy yondashib, uni «Mamlakat qishloq xo'jaligida ozuqa, xomashyo va tayyor oziq-ovqatni siljitish bo'yicha amalga oshirilayotgan bitimlar, eksport-import operatsiyalari hamda shu bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui» sifatida ifodalaydi.[10]

V.D.Goncharov bozor elementlarini to'liq aks ettirishga harakat qilib, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini «oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va taqsimlash jarayonida vujudga keladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xaridor va sotuvchi tanlashdagi, narx belgilashdagi va mablag' shakllantirishdagi erkinlik bilan tavsiflanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi» deb ataydi.[11] N.P.Ketova esa shu tarifni to'ldirib, «axborotdan foydalanish» ni ham qo'shadi.[12]

Yu.B.Kostrova oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga dinamik tizim deb qaraydi: «Mahsulot sifati va narxi nazorat qilinib, ishlab chiqaruvchi va iste'molchi o'rtasidagi

mustahkam aloqa, mutanosib ravishdagi ishlab chiqarish va yetkazishdagi dinamik tezkor tizimdir». [13]

S.U.Nuraliyev va D.S.Nuraliyevalar ham «Oziq-ovqat ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish sohasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi» deb ta'riflaydi.[14]

O.N.Fetyuxina esa, oziq-ovqat mahsulotlari bozori tushunchasini yoritishda «sotsium» (tabaqalanish) va «raqobatda ustunlik» kabi kategoriyalarni qo'llab quyidagicha ta'rif beradi: «Raqobat ustunliklari ko'rinishidagi keskin ta'sir ko'rsatadigan jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy ta'minlash tizimi, uning asosiy tarkibiy qismlari oziq-ovqatga bo'lgan biologik ehtiyojlar, shuningdek, aholining to'lov qobiliyati va milliy ishlab chiqarish va import orqali shakllanadigan taklif tufayli noelastik talabdan iborat».[15]

G.M.Zinchuk esa, «oziq-ovqat bozorini oziq-ovqat xom-ashyosi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishni qamrab oluvchi iqtisodiyotning tarkibiy qismi, sifatida belgilaydi».[16]

Shu bilan birga, aksariyat mualliflar oziq-ovqat bozori mohiyatining muhim qismini aks ettirishiga qaramay, ishlab chiqarish siklining bosqichlari o'rtasida qayta aloqalarning mavjudligi va namoyon bo'lishini ko'rsatib o'tishmagan.

Ba'zi mualliflar oziq-ovqat bozorini murakkab iqtisodiy tizim sifatida ta'riflaydilar, masalan, S.S.Vorokov quyidagi ta'rifni beradi: «Oziq-ovqat bozori – bu mahsulot-pul munosabatlaridan talab va taklifning bozor mexanizmlari orqali maksimal foydalanish asosida mazkur hudud aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlovchi murakkab ko'p bosqichli tashkiliy-iqtisodiy tizimdir».[17]

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori bugungi kunda yirik makroiqtisodiy ahamiyatga ega va uning holati talab va taklif nisbatida aholi moddiy iste'moli darajasida, daromad va xarajatlarida, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida o'z aksini topadi. Iste'mol bozorini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishda uning ehtiyoj (talab), taklif va baho elementlarini ham o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu elementlar esa, marketing faoliyatining ham asosidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishning nazariy asoslari bo'yicha qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat sanoati jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Korxonalarining samarali faoliyat yuritishi uchun ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi globallashtirish jarayonlari va texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va salohiyatni oshirishni talab etmoqda. Shu bois, oziq-ovqat

sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab qiladi. Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish masalasi bo'yicha quyidagilarga e'tibor qaratamiz.

1. Ishlab chiqarish salohiyatini baholash va tahlil qilish

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish uchun bir necha asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish kerak. Ushbu ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Ishlab chiqarish salohiyatini baholash mezonlari

Mezonlar	Tavsifi
Mehnat unumdorligi	Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori
Texnologik daraja	Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan zamonaviy uskunalar
Investitsiyalar	Yangi texnologiyalarga yo'naltirilgan sarmoya miqdori
Ishlab chiqarish hajmi	Bir davrda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish uchun texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligini ko'tarish va sarmoyalarning samarali yo'naltirilishi muhim ahamiyatga ega.

2. Ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsiyalarni joriy etish

Ishlab chiqarish jarayonlariga yangi texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari quyidagi diagrammada ko'rsatilgan:

Diagrammada ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish korxonalarning mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va xarajatlarni qisqartirishga olib keladi.

3. Oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalarning ahamiyati

Oziq-ovqat sanoatida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi quyidagi jadvalda tahlil qilingan:

2-jadval

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish natijalari

Texnologiya turi	Ta'siri
Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari	Ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi
Sun'iy intellekt	Tahlil va prognozlash sifatini oshiradi
Blokcheyn texnologiyasi	Mahsulot xavfsizligini ta'minlaydi
IoT (internet ashyolari)	Jarayonlarni real vaqtda kuzatish imkonini beradi

4. Samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari quyidagilar e'tibor qaratish lozim:

Investitsiyalarni oshirish: Ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun kapital sarmoyalarning hajmini oshirish kerak.

Kadrlar tayyorlash: Yangi texnologiyalarni qo'llay oladigan mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish muhim.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash: Oziq-ovqat sanoatida ekologik texnologiyalardan foydalanishni kuchaytirish lozim.

Raqamli transformatsiya: Korxonalarda raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish.

5. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish strategiyasi. Bu strategiya ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va resurs tejash mexanizmlarini joriy etishga asoslanadi. Bu esa ishlab chiqarish salohiyatini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarishni takomillashtirish korxonalarining samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, strategik boshqaruv va resurslardan oqilona foydalanish sohadagi muvaffaqiyatli faoliyatning kaliti hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlardan samarali foydalanish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sotuvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalarni ta'min etuvchi hudud hisoblanib, mahsulot-pul munosabatlarini rivojlantiradi va bu jarayon uzluksiz ravishda davom etadi. Shu bilan bir vaqtda, iste'mol bozorida ayirboshlash vositasi hisoblangan oziq-ovqat mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, savdo-sotiq jarayonini tashkil etishda hisobga olishni taqozo etadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori o'zining ma'lum bir xususiyatlariga ega bo'lib, unda inson hayoti faoliyatini ta'minlaydigan va birinchi navbatda zarur bo'ladigan iste'mol mahsulotlari savdosi amalga oshiriladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori bir qancha muhim vazifalarni bajaradi: oziq-ovqat mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi; oldi-sotdi vositasi orqali sotuvchi va iste'molchilarning o'zaro harakatini ta'minlaydi; ishlab chiqarishda, oziq-ovqat mahsulotlari taqsimlanishida, talab va taklif tarkibidagi miqdoriy muvofiqlikni ta'minlab beradi; oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtasidagi muvozanatlashgan narxlar va muvofiqlik darajasini belgilaydi.

Oziq-ovqat bozorini ko'p bosqichli tizim sifatida qayd etish haqidagi fikriga qo'shilamiz, ammo shuni hisobga olish kerakki, oziq-ovqat bozorida barter munosabatlari ham amalga oshirilishi mumkin, bu esa oziq-ovqat bozoridagi haqiqiy vaziyatni aks ettirmaydi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori haqida so'z yuritganda birinchi navbatda individual iste'molchilarga shaxsiy foydalanish uchun taklif etiladigan mahsulotlar jamlanmasini nazarda tutishimiz mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari bozoridagi iqtisodiy munosabatlar bir tomondan xarajatlarni qoplash zaruriyati bo'lsa, ikkinchi tomondan esa mavjud ehtiyojlarni to'laroq qondirishdan iborat.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozori boshqa bozorlardan unda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining umumiyligi bilan tavsiflanadi va sifat jihatidan ajralib turadi.

«Oziq-ovqat mahsulotlari – bu insonning hayotiy energiyaga bo'lgan fiziologik ehtiyojini qondirishga, shuningdek organizmning me'yoriy ishlashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan muhim moddalarni yetkazishga imkon beruvchi mahsulotdir».[18]

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini quyidagicha tasniflash mumkin (3-jadval):

3-jadval

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining tasniflanishi

Oziq-ovqat mahsulotlarning asosiy belgilari bo'yicha turkumlanishi	Oziq-ovqat bozorlarining turlari	
Qamrab olish hududiga ko'ra	dunyo miqyosida; davlatlararo; umummilliy; mintaqaviy; mahalliy	
Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra	eksport qiluvchilar bozori; import qiluvchilar bozori	
Mahsulotlar harakatlanishi shakliga ko'ra	ulgurji (B2B)	chakana (B2C)
Mahsulotlarni saqlanish muddatiga ko'ra	uzoq muddatli saqlanadigan mahsulotlar; tez buziladigan mahsulotlar; mavsumiy saqlanadigan mahsulotlar	
Xaridorlarga ko'ra	Xaridorgirlik talabi darajasi bo'yicha: past darajali, o'rtacha darajali, yuqori darajali; aholiga; oziq-ovqat sanoati korxonalariga; umumiy ovqatlanish korxonalariga; chakana savdo korxonalariga; savdo agentlariga.	
Rivojlanishiga ko'ra	rivojlanmagan; tartibga solinadigan; erkin	
To'yinganlik darajasiga ko'ra	muvozanatlashgan; ortiqcha taklifi; taqchillik.	
Bozor xususiyatiga ko'ra	xaridor bozori; sotuvchi bozori	
Mahsulot guruhlariga ko'ra	xom-ashyo va materiallar bozori; iste'mol mahsulotlari bozori; ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan mahsulotlar bozori	
Qonuniylik darajasiga ko'ra	qonuniy bozor (sifatli, aholi iste'moli uchun yaroqli bo'lgan mahsulotlarni sotish)	noqonuniy bozorlar (qonunchilik normalarining buzilishi, ro'yxatdan o'tmagan, xavfli, sifatsiz, iste'mol uchun yaroqli bo'lmagan, taqiqlangan mahsulotlarni sotish)

3-jadvaldagi mezonlar asosida oziq-ovqat mahsulotlari bozori ikki toifaga quyi bozor va bozor segmentiga ajratilgan. Bozor segmenti bozorning bir qismi hisoblanib, ma'lum bir mahsulot va xizmatga nisbatan umumiy talablar asosida birlashtiriladi hamda bozor sub'ektlari, ya'ni iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan ifodalanadi.

Oziq-ovqat mahsulotlarining tabiiy ko'rinishida mavjudligini savdo tarmog'ida aholi tomonidan talab qilinadigan oziq-ovqat miqdori va assortimentining qabul qilingan me'yorlarga muvofiq holda mavjudligini ta'minlash orqali kafolatlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, oziq-ovqat ta'minoti masalasini mamlakat makroiqtisodiy rivojlanishining murakkab, biroq yechilishi shart muammolaridan bo'lib, uning asosiy manbai hisoblangan agrosanoat majmuasi tabaqali tizimga ega ekanligini hisobga olgan holda, hal etish hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab

tarkibidagi o'zgarishlar va tendensiyalarni tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini boshqarish korxonalarning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy iqtisodiy muhitda ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish nafaqat korxona daromadlarini oshirish, balki mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish darajasini yuqori ko'tarish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarishning asosiy omillaridan biri - texnologik modernizatsiyadir. Korxonalarda yangi texnologiyalarni joriy qilish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va mehnat unumdorligini oshirish mumkin. Bunday yondashuv jahon tajribasida o'zini oqlagan va ko'plab rivojlangan mamlakatlarda sanoat sohalarining innovatsion rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Masalan, M. Porterning raqobat ustunligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarish resurslarini to'g'ri boshqarish va ulardan samarali foydalanish korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning asosiy shartlaridan biridir.

Bundan tashqari, ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish kadrlar salohiyatini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Korxonalarda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, innovatsion yondashuvlarga asoslangan mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikka erishishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish ham oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, blokcheyn texnologiyalari mahsulot xavfsizligini ta'minlash va ta'minot zanjirlarini yaxshilash uchun, internet ashyolari (IT) esa ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda nazorat qilish uchun qo'llanilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarishning yana bir muhim jihat — ekologik barqarorlik va resurs tejamkorligidir. Rivojlangan mamlakatlarda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish va qayta ishlanuvchi resurslarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali qilishga erishilmoqda. O'zbekistonda ham bu boradagi harakatlar tobora kengayib, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va investitsiya loyihalari natijasida sanoat korxonalarida «yashil texnologiyalar» va barqaror rivojlanish strategiyalari joriy etilmoqda.

Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha olib borilishi lozim:

- yangi texnologiyalarni joriy qilish va raqamli transformatsiyani kuchaytirish;
- korxonalarning kadrlar salohiyatini oshirish va ta'limni rivojlantirish;
- ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish;
- davlat tomonidan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash choralari yanada kuchaytirish;
- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilishi.

Shunday qilib, oziq-ovqat sanoati korxonalarida ishlab chiqarish salohiyatini samarali boshqarish nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi va aholi farovonligi uchun ham katta ahamiyatga ega. Bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlarning yanada rivojlanishi kelajakda oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish salohiyatini maksimal darajada samarali boshqarish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 09.09.2020 йилдаги “Республика озиқ-овқат саноатини жадал ривожлантириш ҳамда аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан тўлақонли таъминлашга доир чора-тадбирлар тўғрисида” ПҚ-4821-сон қарори. <https://lex.uz/docs/4990322>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 16.02.2024 йилдаги “Республикада озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-36-сон фармони <https://lex.uz/docs/6802687>
3. М.А. Каримов Озиқ-овқат саноати корхоналарида бошқариш механизмига таъсир этувчи омиллар ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 5, sentyabr-oktyabr, 2020 yil. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/15_Karimov_M.pdf?utm_source=chatgpt.com
4. М.Ш. Маматқулов Озиқ-овқат саноати корхоналари фаолиятининг ташкилий-иқтисодий асослари // "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3.567 (SJIF) December 2022 / Volume 3 Issue 12. https://staff.tiame.uz/storage/users/584/articles/MMBPvmkO72ZXttwu2gAs3KwF4jyaqZuvmEcms3tD.pdf?utm_source=chatgpt.com
5. М.А. Каримов Озиқ-овқат саноати корхоналарида бошқарувнинг ташкилий-иқтисодий механизмини мазмуни ва моҳияти // ИҚТИСОД ВА МОЛИЯ / ЭКОНОМИКА И ФИНАНСЫ 2020, 3(135). https://itm.uz/wp-content/uploads/2022/04/19.%D0%9A%D0%B0%D1%80%D0%B8%D0%BC%D0%BE%D0%B2-%D0%9C.%D0%90.-3.20.pdf?utm_source=chatgpt.com
6. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Вильямс, 2007. — с.101.
7. Gary Armstrong, Philip Kotler, Valerie Trifts, Lilly Anne Buchwitz, David Gaudet. Marketing: an introduction. Sixth Canadian edition. – Canada.: Pearson, 2017. page 123.
8. Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: Гостинтэр, 1996. – с. 249.
9. Алиева Л., Светлорусова Т. Инновационная система развития агропродовольственного рынка. // АПК: экономика и управление. 2007. -№4. С. 50-52. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=9487839>
10. Бурдуков П.Т. Россия в системе глобальной продовольственной безопасности. (Электронный ресурс) <http://www.duel.ru/publish/burdukov/glob.html>
11. Гончаров В.Д. Формирование продовольственного рынка. // АПК: экономика и управление.1996. №4. — с. 51

12. Кетова Н.П. Отраслевой маркетинг: стратегии, функции, приоритеты: учебное пособие. –М.: Вузовская книга, 2012. – с. 320
13. Кострова Ю.Б. Анализ продовольственного рынка России. Монография. -СПб: Издательство Санкт-Петербургского университета управления и экономики, 2014. — с. 8
14. Нуралиев С.У., Нуралиева Д.С. Основные направления развития и регулирования продовольственного рынка в условиях вступления России в ВТО. // Пищевая промышленность. -2012. -№12. – с. 10-13
15. Фетюхина О.Н. Функционирование и развитие агропродовольственного рынка России в условиях глобализации: теория, методология, практика. Автореферат на соиск. ученой степени доктора наук. Ставрополь, 2011. — с. 12-13
16. Зинчук Г.М. Понятие и виды продовольственного рынка. //Альманах современной науки и образования. 2011. №10 (53). — С. 111-113
17. Вороков С.С. Развитие регионального продовольственного рынка: автореферат на соиск. ученой степени доктора экономических наук Краснодар, 2004.
18. Киселева Е.Н., Власова О.Н., Коннова Е.Б. Рынок продовольственных товаров. Учебное пособие. –М.: 2013. — с. 3